



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 9-oktabr

525-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 24-sentyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr bo‘yicha bo‘lish va ko‘chmas mulk obyektlarining kadastr raqamlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 9-sentyabrdagi 555-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 442-6-0-Q/24-sonli qarori haqida**

O‘zbekiston Respublikasining “Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, shuningdek, ko‘chmas mulk obyektlarini hisobga olish hamda ularga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr bo‘yicha bo‘lish va ko‘chmas mulk obyektlarining kadastr raqamlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 9-sentyabrdagi 555-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 24-sentyabrdagi 442-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 24-sentyabrdagi 442-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-sentyabrdagi 555-son qarori bilan: Quyidagilarni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr bo‘yicha bo‘lish va ko‘chmas mulk obyektlarining kadastr raqamlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi:

Kadastr va ko‘chmas mulklarni ro‘yxatdan o‘tkazish integratsion axborot tizimida (keyingi o‘rinlarda — UZKAD tizimi) ko‘chmas mulk obyektlarining kadastr raqamlarini shakllantirish;

kadastr raqamlarini ko‘chmas mulk obyektlari bo‘yicha toifalashtirish orqali ularni hisobga olish va hisobini yuritish;

belgilanishicha:

hududlarni kadastr bo‘yicha bo‘lish hamda ko‘chmas mulklarning kadastr raqamlarini o‘zgartirish bilan bog‘liq xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining (keyingi o‘rinlarda — Kadastr agentligi) budjetdan tashqari jamg‘armasi hamda Davlat kadastrlari palatasining o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishi;

ko‘chmas mulk obyektlarining kadastr raqamlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish natijasida ilgari berilgan kadastr raqami ko‘chmas mulkning mulk tarixiga oid ma‘lumotlarda saqlab qolinishi;

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 2-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Kadastr agentligi tuman bo‘limi (A.Shodmonov) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda 2024-yil 20-noyabrga qadar hududlarni kadastr bo‘yicha bo‘lish hujjatlarini tegishli qarorlari bilan tasdiqlanishini ta‘minlasin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimning moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**